



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.:
O.Voxidov

«4» avgust 2026 y.
№ 532

“O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish kioski (Self-Service Kiosk) qurilmasini xarid qilish”

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent — 2026 y.

1. Buyurtmachi

Buyurtmachi – “Biznesni rivojlantirish banki” ATB.

Buyurtmachining manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 18A uy. Tel: +998 (78) 150-00-55.

2. Ijrochi

Ushbu tanlov bo‘yicha ijrochi tanlash natijalari asosida belgilanadi.

Ijrochi mazkur texnik topshiriq talablariga to‘liq javob beruvchi o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish kioskini (Self-Service Kiosk) va unga tegishli barcha aksessuarlarni yetkazib berish bo‘yicha texnik taklifini taqdim etishi lozim.

Ijrochi yetkazib beriladigan uskunalar uchun kamida 3 yil kafolatli texnik va servis xizmatini ko‘rsatishi hamda kafolat muddati tugagandan so‘ng ham texnik xizmat ko‘rsatish imkoniyatini ta’minlashi lozim.

Yetkazib beriladigan barcha uskunalar yangi, foydalanilmagan, to‘liq yig‘ilgan va foydalanishga tayyor holatda bo‘lishi shart.

3. Texnik ta’minotga qo‘yiladigan talablar

Mahsulotni yetkazib berish ushbu texnik topshiriqda belgilangan barcha talablar asosida amalga oshirilishi lozim.

Texnik taklifda taklif etilayotgan uskunalar ro‘yxati, soni va texnik xususiyatlari to‘liq ko‘rsatilishi zarur.

Taklif etilayotgan uskunalarining texnik ko‘rsatkichlari ushbu texnik topshiriqda belgilangan minimal talablardan past bo‘lmasligi shart.

Yetkazib beriladigan uskunalarining nomi va soni 1-jadvalda keltirilgan. Mazkur uskunalar bo‘yicha texnik taklif to‘liq hajmda taqdim etilishi lozim. Texnik topshiriqda belgilangan talablarni to‘liq qamrab olmagan yoki ularga mos kelmaydigan texnik taklif taqdim etilgan taqdirda, bunday taklif rad etiladi va ishtirokchi tanlovdan chetlashtiriladi.

Taklif etilayotgan va yetkazib beriladigan uskunalar 2-jadvalda belgilangan minimal texnik talablardan past bo‘lmagan texnik xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim.

1-jadval

Xarid qilinadigan xizmatlar ro‘yxati

№	Xizmat nomi	Hajmi / Soni
1	O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish kioski (Self-Service Kiosk)	2

2-jadval

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kiosking har biriga qo'yiladigan minimal texnik talablar

№	Parametrlar	Minimal majburiy talablar
1	Qurilma turi	Polga o'rnatiladigan (Floor Standing) o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kioski.
2	Konstruktsiyasi	Monoblok sanoat tipidagi konstruktsiya.
3	Korpus materiali	Metall korpus, chang bo'yoq (Powder Coating) bilan qoplangan.
4	Korpus rangi	Qora va/yoki kumushrang.
5	Display o'lchami	27 dyuym.
6	Display turi	TFT LED LCD.
7	Display aniqligi	Full HD (1920×1080).
8	Tomonlar nisbati	16:9.
9	Yorqinligi	Kamida 300 cd/m ² .
10	Sensorli ekran	Projection Capacitive (P-CAP), Multi-Touch texnologiyasi.
11	Protsessor	Intel Alder Lake-N N95, N97 yoki N100, yoki Intel Core i3/i5 (4-avloddan past bo'lmagan).
12	Operativ xotira	DDR4, kamida 8 GB, kengaytirish imkoniyatiga ega.
13	Ma'lumotlar saqlash qurilmasi	SSD M.2 yoki mSATA, hajmi kamida 256 GB.
14	Operatsion tizim	Windows 10 va Windows 11 operatsion tizimlari bilan mos ishlashi.
15	Video chiqish portlari	Kamida 1×HDMI va 1×VGA.
16	USB portlari	Kamida 4 ta ichki USB va 1 ta tashqi USB port.
17	Tarmoq interfeysi	Gigabit Ethernet RJ-45.
18	Audio tizimi	Kamida 2 ta ichki dinamik, har biri kamida 3 W quvvatga ega.
19	Elektr ta'minoti	AC 100–240 V, 50/60 Hz.
20	Shtrix-kod skaneri	Ichki o'rnatilgan 2D Barcode Scanner.
21	Printer	Ichki o'rnatilgan 3 dyuymli termoprinter, avtomatik qog'oz kesish (Auto Cutter) funksiyasiga ega.

№	Parametrlar	Minimal majburiy talablar
22	Chop etish tezligi	Kamida 200 mm/sekund.
23	Holat indikator	Rangli LED indikator.
24	Ishlash harorati	0°C dan +60°C gacha.
25	Saqlash harorati	–35°C dan +75°C gacha.
26	Sovutish tizimi	Ventilyatorsiz (Fanless) yoki CPU ventilyatori bilan jihozlangan.
27	O'lchamlari	Polga o'rnatiladigan konstruktsiya, taxminan 1734×550×450 mm.
28	Simsiz aloqa	Wi-Fi va Bluetooth modullarini o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lishi.
29	Qo'shimcha imkoniyatlar	NFC, MSR (Magnit karta o'quvchi), 4G/LTE, kamera hamda to'lov terminalini o'rnatish uchun sozlanadigan kronshteynni qo'llab-quvvatlashi.
30	Yetkazib berish to'plami	Kiosk korpusi, polga o'rnatish stendi, ichki kompyuter, sensorli displey, 2D skaner, termoprinter, ulanish kabellari to'plami, foydalanuvchi qo'llanmasi va kafolat hujjatlari.

Tanlovda ishtirok etuvchi doirasi kengayganda, texnik topshiriqda ko'rsatilgan yoki undan yuqori texnik xususiyatlarga ega boshqa o'xshash yechimlar asosidagi takliflar ko'rib chiqilishi mumkin.

4. Kafolatlar hajmiga va ularni taqdim etish muddatiga qo'yiladigan talablar

Taklif etilayotgan uskunalar yangi, foydalanilmagan hamda 2025-yildan boshlab ishlab chiqarilgan bo'lishi lozim.

Uskunalarining kafolat muddati kamida 3 yil bo'lishi shart.

Kafolat muddati davomida yuzaga keladigan nosozliklar ishlab chiqaruvchi yoki uning vakolatli servis markazi tomonidan bartaraf etilishi lozim.

5. Xizmatlarni taqdim etish joyi va shartlariga qo'yiladigan talablar

Ijrochi mahsulotning quyidagi manzilga yetkazib berilishini ta'minlashi zarur:

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 278 uy.

Yetkaziladigan barcha uskunalar O'zbekiston Respublikasi hududiga rasmiy yo'l bilan olib kirilishi va qonunchilik yoki ekvivalent xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlanishi shart, bu tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi zarur.

Tovarlarni yetkazib berish va ularni qabul qilib olish ishlari yetkazib berish joyigacha avtomobil transporti yoki boshqa mos usul orqali ijrochi mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi.

kelishuvchilar: X.Abduraximov, S.Kayimov, Z.Orifkhojayev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=IF67jB92&id=316b5449-d4f6-4c43-a50e-fb5fd61c8303>